O‘ZBEK MUSIQIY FOLKLORIDA SINKRETIZM: O‘ZIGA XOS ASPEKTLAR

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
o‘qituvchisi, tadqiqotchi ***Yuldashev Izzat Ikramovich***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek musiqiy folklorida sinkretizmning o‘ziga xos apektlari o‘rganilgan. Etnomusiqiy madaniyatning immanent xususiyatlarining xalq marosimlari, an’analari hamda etnosan’at turlari bilan uyg‘unlashib ketishi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlari. *Musiqiy folklor, etnomusiqiy madaniyat, sinkretizm va kuy-ohang.*

Etnosning borliq, narsa-hodisa va inson haqidagi qarashlari ijtimoiylik va insoniylik tomon sinkretlashuvi asosida folklor genezisi va rivojlanishi amal qilinib kelingan. Madaniylashuvda sinkretizmning innovatsion funksiyasi eskini yangi bilan almashtiradi yoki to‘ldiradi. Xalqona ruhiyatsiz xalq tomosha san’ati va folklor ijrochiligi amalga oshgan emas. Sinkretizm xalqona ruhiyat bilan folklor san’atining bir butun tizimga kelishi va uyg‘unlashuvi bo‘lib keladi. O‘zbek musiqiy folklori kuy-ohang kuylanishi, cholg‘u ijrochilik amaliyoti, so‘z va raqs harakatlari uyg‘unlashib kelgani sababli o‘zbekona xalq tomosha san’ati sinkretikligi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqona ruhiyat xalq tomosha san’ati ijodida ijtimoiy hodisa darajasida ham o‘z ifodasini topgan. Xalqning kayfiyati folklor va xalq tomosha san’atiga sinkretlashuvi innovatsion tarzda ham amal qilib kelingan. Sinkretizmning innovatsion funksiyasi xalq kayfiyati va kechinmalarini etnobadiiy mazmunga keltirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek musiqiy folklori maishiy hayotda, xalq marosim va bayramlarida innovatsion tarzda yangilanib, rivojlantirib kelingan. Genezisli-innovatsion aspektlar – musiqiy folklorning eng qadimgi davrdan to bugunga qadar bir shakldan boshqa shaklga o‘tib kelishida turli ta’sir etuvchi xususiyatlarni, innovatsion tarixi aniqlanishni, kelib chiqishining maqsad va omillarini o‘z ichiga oladigan tamoyillardir. Turkiy xalqlar folklorida sinkretizm badiiy-estetik mazmun yaxlitligini, rivojlanib kelinganini ifodalaydi. Shu vaqtga qadar o‘zbek folklor ijrochiligi va etnosan’atida sinkretizm fenomeni, funksiyalari va yondashuvlari madaniy-metodologik va madaniy-fenomenologik jihatdan keng o‘rganilmagan.

“Falsafa qomusiy lug‘ati”da “sinkretizm” – yunoncha “synkretismos” – birlashtirish, qo‘shish ma’nosini bildirilishi o‘laroq, biron-bir hodisani qismlarga bo‘linmasligini ifodalovchi tushuncha ekani qayd etilgan [16:369.]. E.Abdullayeva esa, “Sinkretizm ijtimoiy-gumanitar konsepsiyaning maxsus tamoyili borasida madaniyat shakllanishining universal bosqichi sifatida rol o‘ynaydi” – deya qayd etib o‘tgan [Abdullayeva E. 22:8.]. Sinkretizm ijtimoiy-madaniy jarayonlarda asosan

postmodernistik, texnogen va institutsional madaniyatlarning etnomadaniy, elitar, milliy, umummilliy va umuminsoniy madaniyatlarga uyg‘unlashib kelishi, yaxlitlashuvi bo‘lib ifodalaniladi.

Ijtimoiy-madaniy hodisa va jarayonlarning sinkretlashuvi eng qadimgi davrlardan beri amal qilib kelingani sababli, ijtimoiylashuv va madaniylashuvning innovatsion tarzda aks etishi mif, an’ana, urf-odat, marosim va etnobadiiy xususuiyatlar muvofiqlashuvida namoyon bo‘lgan. Faylasuf, madaniyatshunos D. Kulagin, “Qadimgi mifologiya – bu jamoaviy xayolotni yaratish, ongni sinkretik birlikda o‘rnatish, bunda subyektiv tuyg‘u va obyektiv tasavvur ratsional tarzda ajratilmagan” – deb qayd etgan [Kulagin D. 34:20.]. Qadimgi mifologiya etnoslarning madaniylashuvida innovatsion va integratsion tarzda o‘zgarishi, shakllanishi sababli ijtimoiylashuvning regulativ va tartibga solish xususiyati ortib borgan. A.Erkayev ibtidoiy davr sinkretizmi haqida: “Odamlar yovvoyilikdan ongli turmush kechirishga o‘tishi, podaning urug‘-jamoaga aylanib, jamiyat paydo bo‘lishi jarayonida o‘z munosabatlarini asta-sekin tartibga sola boshlaganlar. Dastlab onalar va bolalar, otalar va qizlar, akalar va singillar o‘rtasidagi jinsiy aloqalar taqiqlangan, so‘ng boshqa taqiqlar va majburiyatlar paydo bo‘lib, yaxlit sinkretik ong doirasidagi axloqiy, diniy qarashlarda va urf-odatlarda tizimlashgan. Tabiatga munosabatlar ham tizimlashib borgan. Natijada ilk xulq-atvor me’yorlari, marosimlar, ilk diniy tasavvurlar vujudga kelgan. Ular avloddan-avlodga o‘tib, boyib, takomillashib, murakkablashib borgan”, deya ta’kidlagan edi [Erkayev A. 17:46.]. A.Doxayeva “…etnik madaniyat – bu etnos tomonidan ilgari ishlab chiqilgan qadriyatlarni, shuningdek, etnosning zamonaviy tajribaga moslashgan madaniy tajribasini rivojlantirish singari yangi qadriyatlarni o‘z ichiga olgan madaniy sinkretizmdir” – deya qayd etgan [Doxayeva A. 30:33.]. Etnos doim o‘z hayotiy ehtiyoji uchun madaniy boyliklarni, qadriyat va artefaktlarni innovatsion tarzda yaxlitlashtirib kelgan. Shuningdek, etnosning innovatsion tarzda yaxlitlashtirilib kelingan qadriyatlari va artefaktlari musiqiy folklor ijrochiligi va uning genezisida ham aks etadi.

Inson o‘z jamoasini, tabiat va borliqni o‘zgartirishga musiqa, raqs va so‘z yordamida harakat qilgani sababli jamoaviy-madaniy kommunikativlik va informatsion-strukturaviy holat mustahkamlanishi qaror togan edi. Natijada, musiqiy folklor ijrochiligida ramzlarning bir butunlikdagi qarama-qarshiligi, differensiallashuvi va yaxlitlashuvi amal qilingan. M.Nurmatova: “Tabiatdagi narsa, hodisa, jarayonlarning uyg‘un kelishi estetik uyg‘unlikning genezisidagi birinchi halqa hisoblanadi. Eng qadimgi odamzod tomonidan chizilgan birinchi rasm yoki kuylangan ohang-qo‘shiq ham ana shu uyg‘unlikning mahsulidir” – deya ta’kidlagan [Nurmatova M. 12:104.]. Musiqiy folklorning genezisli-innovatsion aspektlarini o‘rganishda ko‘hna cholg‘ular arxeologiyasi, organologiyasi, ijro xususiyatlari va imkoniyatlari yondashuviga tayanish g‘oyatda muhim. Inson tabiat va borliqdan ta’sirlanishini

musiqiy cholg‘ular ijrosiga xayolan ko‘chirish jarayonigacha qabul qilgan. Dastlabki cholg‘u – bu inson ovozi va uning o‘z tan-badani asosida tovush chiqarishi hisoblanadi. Keyinchalik urma cholg‘ular qaror topishi sababli marosim sinkretizmida ritmning dastlabki sayqallangan holatlari yuzaga kela boshlagan edi. Ushbu jarayonda so‘z, raqs, kuy-ohanglar va hatto cholg‘ularning shakliy tuzilishi ham muhim rol o‘ynagan. San’atshunos S.Boltazoda “Sust xotin”, “Yomg‘ir chaqirish” marosimlarida baxshilar tomonidan qurbonlik hayvonlarining qonini o‘zlarining doyra cholg‘ulariga surtish, bo‘yash irim-odatlari bo‘lganini qayd etib, bunda “Qon semantikasi ibtidoiy tasavvurda koinot, tabiat harakatlarining usul yoki vaqt oqimi timsolidir” – degan edi [Boltazoda S. 1:19.]. Etnograf I.Jabborov ta’biricha, qadimgi xorazmliklarda marosim, raqs, pantomima, so‘z-talaffuz va musiqiy ohanglar olov va quyoshga ishora etilib, unda “jaxuv-jaxuv”, “jaqqu”, “ohay”, “ohayyo” va “hey” kabi so‘zlar aytilgan [Jabborov I. 3:272-273.].

San’atshunoslar ta’biricha, ritm, simmetriya, mutanosiblik, amaliy shakl, turli xatti-harakatlar, o‘lchov va uyg‘unlik kabi tushunchalar universal tartib to‘g‘risidagi g‘oyalar bo‘lib, ular qadimgi kosmologiya kontekstida (yaxlitlikda) o‘rganilgan [Zolkin A. 33:194; Barboy Y 26:199; Lukach D. 35:45; Petruxinsev N. 36:52-53.]. Ritm dastlabki jamoadagi munosabatlarni tartibga soluvchi hodisa bo‘lib, u muayyan shaxsiy va jamoaviy harakatlar mukammallashuvining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi [Yegina N. 31:93; Nazarov A. 11:14; Esetika 38:131.]. Tadqiqotchi L.Podvoyskaya garmoniyaga, badiiylikka va estetik qarashlarga, jamiyat va uning tarkibiy qismlariga ritm xos ekanini, ritmik ketma-ketlik esa avlodlar va elita almashinuvida ham aks etishini ta’kidlagan edi [Podvoyskaya L. 37:27.]. G. Bongard-Levin va E. Grantovskiylar shomonlarning childirma, zag‘oma, daf cholg‘ularida marosimlar bilan bog‘liq ramzlar chizilganiga urg‘u qaratishgan edi [Bongard-Levin G., Grantovskiy E. 28:158.]. Qadimgi cholg‘ularda ijro etilgan tabiat usuli va koinotiy usullar yangilanish ramzi bo‘lgani sababli, bunday usullarga insonning o‘zi jonli vosita sifatida qaragan [Abdullayev R. 21:7-19.].

O‘zbek musiqiy folklorining genezisini kuy-ohang tuzilmalari asosida o‘rganish g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuy-ohang tuzilmalari qadimgi kosmologik qarashlar bilan uyg‘unligi semantik jihatdan so‘z-ifodalar bilan sinxron bo‘lib kelishida namoyon bo‘ladi. Ammo hozirgi xalq aytimlarida ayni jihatlarni ayrim belgi va so‘z-ishoralarda ilg‘ab olish mumkin. Buning ustida, musiqiy tovush pog‘onalarining samoviy jismlar bilan bog‘liqligi haqidagi qarashlar qadimgi davrdan beri folkloriy aytimlarda mavjudligi ta’kidlanib kelinadi. Folklorshunos J.Eshonqul turkiy xalqlarning qadimgi kosmogoniyasini o‘ziga xos tarzda tadqiq etib, koinotiy jismlarning rang va ko‘kdagi (samodagi) pog‘onalar bilan uyg‘unlashib kelishini va ketma-ketligini quyidagicha qayd etgan: Zuhal (Saturn) – rangi qora, yettinchi ko‘kda; Mushtariy (Yupiter) – qo‘ng‘ir rang, oltinchi ko‘kda; Quyosh – sariq rang, to‘rtinchi

ko‘kda; Zuhra (Venera) – yashil rang, uchinchi ko‘kda; Utorut (Merkuriy) – moviy rang, ikkinchi ko‘kda; Oy – oq rang, birinchi ko‘kda [Eshonqul J. 18:23.]. Tadqiqotchilar Pifagor va uning izdoshlari qayd etgan yetti samoviy jism – Oy, Merkuriy, Venera, Quyosh, Mars, Yupiter va Saturn kabi sayyoralar koinot markazi, deb qaralgan nuqta – Yer atrofida aylanma harakat sodir etishi va ayni vaqtda ular (har biri) uyg‘unlashib kelishi bilan, (7ta) musiqiy nag‘malarni ham sadolantiradi, deya qayd etishgan [Античная философия 24:555-557; Bogomolov A. 27:84-85; Ibrohimov O. 6:28-29; Jmud L. 32:91-100.]. Ilmiy manbalarga qaraganda, Pifagorchilar Yer dunyoviy olovsimon markaz atrofida aylanib, alohida balandlikka ega bo‘lgan tovush chiqazadi, Oyning tovushi – baland va o‘tkir, Saturnning tovushi – eng past bo‘lib, ayni mana shu tovushlar birgalikda hamohang kuyni hosil qiladi, deb ta’kidlashgan [Yuldashev S. 19:26; Yo‘ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. 8:16.]. Tadqiqotchi M.Imomnazarov “...musiqa san’ati qadimgilar ishonchiga ko‘ra, inson tuyg‘ulariga bevosita koinot uyg‘unligini olib keluvchi vosita hisoblangan” – deya ta’kidlagan edi [Imomnazarov M. 7.102-103.].

O‘zbek musiqiy folklorida kuy-ohang tuzilmalari insoniy ichki kechinmalar sifatida marosimlarga, maishiy hayotga muvofiqlashgani sababli strukturali va badiiy-estetik tarzda bir-biriga uyg‘unlashib ketgan. Xalq aytimlarida kuy-ohang tuzilmalarining so‘z-ifodalar bilan semantik yaxlitligi yaxshi saqlanib qolingan. Etnomusiqashunoslar tadqiqotlaricha, inson tomonidan so‘z, talaffuz ifoda etilishining musiqadagi in’ikosi bo‘lib kelgan katta sekunda nisbati xuddi shu miqdorda yana bir pog‘ona ko‘tarilib, ayni katta sekundaga yana bir katta sekunda (nutq-talaffuz) orqali unga kelib qo‘shilishi natijasida nutqdosh yoki so‘zdosh ohanglar yuzaga kelar ekan [Toshtemirov N. 14:107; Ibrohimov O. 4:15.]. O‘zbek xalq aytimlarida nutqdosh ohanglar katta sekunda bilan birga kelgan holda, katta tersiya hajmli major tuzugi uyg‘unlashuvi orqali kvarta va kvinta doirasida amal qiladi [Toshtemirov N. 14:107; Ibrohimov O. 4:15.]. Musiqashunoslar tadqiqoticha, eng qadimgi insonlarning kuy hamda aytim-ohanglari ketma-ketligi quyi oqim harakatiga asoslanadi [Gruber R. 29:10-22; Alekseyev E. 23:64-65; Ibrohimov O. 5:33-34.]. O.Ibrohimov ta’biricha, quyi oqimli kuy-ohanglar turli xalqlarning an’anaviy tarzda ijro etib kelinayotgan marosim musiqa namunalarida o‘z kuchini saqlagan holda, ular eng quyida joylashgan tayanch tovushiga nisbatan ma’lum balandlikdan (tersiya, kvarta, kvinta va hokazo yuqori pog‘onalardan) boshlanib, quyilikka qarab harakatlanadi [Ibrohimov O. 5:33-34.]. Tadqiqotchilar ta’kidicha, insondagi tabiiy yig‘iga xos g‘amnok ohanglarning erkin va badihaviy tarzda aytilishi undagi kuy-ohanglar quyi sirg‘anma harakatlarga muvofiqligini ifodalaydi [Alekseyev E. 23:66-80; Ibrohimov O. 5:32-33.]. O‘zbek xalq aytimlarining “yor-yor” ohanglari ham quyi oqim harakatlari sifatida namoyon bo‘lib, ko‘pincha ularning so‘zlari bilan kuy-ohanglari uyg‘unligi yig‘i holati bo‘layotganiga ishora etadi [Panjiyev Q. 13:106; Toshtemirov N. 15:101.]. Etnomusiqashunoslar

ta’kidicha, insoniy ichki his-tuyg‘ularning, shaxsiy kechinmalarning samimiy ifodalanishi orqali, nutqdosh va mungli quyi oqimdagi ohanglar uyg‘unligi, ya’ni “dil yozdi” (qorishma) ohanglar yuzaga kelgan [Ibrohimov O. 4:16; Toshtemirov N. 15:111.]. Etnomusiqiy amaliyotda kuy-ohang tuzilmalari ritm va usul orqali uyg‘unlashib kelgani sababli aytimning badiiy-estetik yaxlitligi mustahkamlanib kelingan. Dr., professor O.Ibrohimov “Kuy-ohang va she’r ritmlari umumiy bo‘lgan sinkretik aytimlar” – deya ta’kidlagan edi [Ibrohimov O. 4:16.].

Baxshi hamda xalfachilar kuy-ohanglarni, ko‘hna cholg‘u ijrolarini, badihago‘ylikni, so‘z va notiqlikni badiiy tomoshalarda uyg‘unlashtira olgani sababli tomoshabin va eshituvchilar orasida kommunikativlikni yuzaga keltira olishgan edi. San’atshunoslik fanlari doktori O.Tojiboyeva kommunikativlikni epik dostonchilik bilan bog‘lagan holda quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Xalq epik dostonchiligi asrlar davomida kishilarning informatsion – kommunikativ va estetik ehtiyojini qondirish, ma’naviy axloqiy tarbiyasi hamda tafakkur dunyosini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib kelgan” [Tojiboyeva O. 14:9]. Baxshi va xalfalar dostonni ijro etayotganda o‘zlarini asar qahramoni sifatida ko‘rsatishi orqali tomonshabinlarni o‘zlariga jalb eta olishgan. Baxshining dostondagi asar qahramoniga sinkretlashuvi tomosha tugagunicha davom etgan. Bu holat arxaik davrdan beri amal qilib kelinmoqda. Eng qadimgi madaniy qahramonlar haqli ravishda birinchi personajlar bo‘lib, arxaik folklorda sinkretik obrazlar hisoblanadi [Arxipova Yu. 25:43.].

Baxshichilik, qiziqchilik, mazxarabozlik, dorbozlik va yallachilik san’ati ustalari xalq aytimlarini tomosha holatining ichki xususiyatlaridan kelib chiqib ijro etishgan. San’atshunos olim M.Qodirov qiziqchi va masxarabozlar ba’zida xalq aytimlarini kuylab, kamdan kam hollarda cholg‘u chalishganini, qo‘shiq aytish hamda raqsga tushish amaliyotlarini bir-biriga uyg‘unlashtirishganini, o‘zlarining tomoshalarida muayyan darajada ijro eta olishganini ta’kidlaydi [Qodirov M. 10:36.]. I.Jabborov ta’kidicha, barcha xalq teatri san’atkorlari – masxaraboz, qiziqchi, qo‘g‘irchoqboz va sozandalar bir uyushmaga “korxonayi sozandalik” yoki “mehtarlik” degan nom bilan birikishib, ular umumiy tarzda, o‘z chiqishlarini har xil vaziyatlarda olib borishgan ekan [Jabborov I. 3:284.]. Xalq tomosha san’atiga xos mazxarabozlik, qiziqchilik va qo‘g‘irchoqbozlik tomoshalarining musiqiy amaliyot bilan xalq bayramlari va marosimlariga sinkretlashuvi ham amal qilingan. T. Qilichev tadqiqoticha, odamlar sumalak pishirish paytida davra bo‘lib yig‘lishib, xalq o‘yin tomoshalarida juda qadimdan beri o‘tkazib kelinayotgan og‘zaki satirik teatr elementlarini birin-ketin amalga oshirishgan, yig‘ilganlardan qolganlari esa o‘yin-kulgini davom ettirib, qo‘shiq aytishgan [Qilichev T. 9:75-77.].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek musiqiy folkorida kuy-ohanglar, raqs, cholg‘u ijrochiligi, so‘z, badihaviylik hamda aytim aytish holatlari uyg‘unlashgan holda badiiy-estetik yaxlitlikni yuzaga keltirgan. Bu o‘zbek musiqiy folklorining sinkretikligidir.

O‘zbek musiqiy folklori xalq madaniyati bilan yaxlitlikda etnos hayotiy ehtiyojlari va manfaatlariga sinkretlashuvi asosida rivojlanib kelgan. O‘zbek tomosha san’ati turlaridan musiqiy folklor aytimlarini, kuy-ohanglarini ajratib bo‘lmaydi. O‘zbek musiqiy folklorining xalq madaniyati bilan yaxlitlashuvini, sinkretik tarzda namoyon bo‘lish xususiyatlarini quyidagi ilmiy-tadqiqot yondashuvlari asosida o‘rganish muhim:

1. Etnomusiqiy kuy-ohang tuzilmalariga tayanish;
2. Ko‘hna cholg‘ular arxeologiyasi, organologiyasi, ijro xususiyatlari va imkoniyatlarining yaxlitlik yondashuviga tayanish;
3. Etnohududiy-maishiy hayotga tayanish;
4. Folkloriy marosim xususiyatlariga tayanish;
5. Etnosan’at turlari sintezlashuvi va yaxlitlashuviga tayanish;
6. Xalqlararo (etnoslararo) etnomadaniy integratsiyaga tayanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Болтазода С.С. Марказий Осиё маданиятида урма чолғулар (ўзбек ва тожик мусиқа анъаналари мисолида). Дисс. … сан. фан. ном. – Тошкент: Ўзбекистон Бадиий академияси Санъатшунослик илмий-тадқиқот институти, 2008. – 19 б.
2. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 284 б.
3. Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 272-273 б.
4. Иброҳимов О. А. Ўзбек халқ мусиқа ижоди (методик қўлланма). I-қисм. – Тошкент: 1994. – 16 б.
5. Иброҳимов О. Мақомлар семантикаси. Дисс. … сан. фан. док. – Тошкент: Ўзбекистон Бадиий академияси Санъатшунослик илмий-тадқиқот институти, 1996. – 33-34 betlar.
6. Иброҳимов О. Мақомлар тарихидан // ЎзДСМИ хабарлари. – Тошкент: 2020. – № 1(13). – 28-29 бетлар;
7. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. Монография. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 102-103 бетлар.
8. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 16 б.
9. Қиличев Т. Хоразм халқ театри. Монография. – Тошкент: Ғ. Ғулом ном. Адабиёт ва санъати нашриёти, 1988. – 75-77 бетлар.
10. Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати. Монография. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 36 б.
11. Назаров А. Форобий ва Ибн Сино. Ритмика хусусида. Монография. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 14 б;

12. Нурматова М. А. Шахс маънавий камолотида эстетик ва ахлоқий қадриятлар уйғунлиги муаммоси. Дисс. … фал. фан. док. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2011. – 104 b.
13. Панжиев Қ.Б. Сурхондарё вилояти ўзбек халқ қўшиқчилик ижодиёти. Дисс. … сан. фан. ном. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Санъатшунослик институти, 2010. – 106 b;
14. Тожибоева О. Эпос ва театр. Халқ эпик ижодиётининг театр санъатидаги ўрни. Биринчи китоб. Монография. – Тошкент: Санъат, 2015. – 9 б.
15. Тоштемиров Н.Б. Жиззах вилояти ўзбек халқ қўшиқчилиги. Дисс. … сан. фан. ном. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Маданият ишлари вазирлиги Санъатшунослик илмий-тадқиқот институти, 1993. – 107-109 b;
16. Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 369 б.
17. Эркаев А. Маънавиятшунослик. 1-китоб. Монография. – Тошкент: Маънавият, 2018. – 46 b.
18. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. Монография. – Қарши: Насаф, 1999. – 23 б.
19. Юлдашев С. Антикфалсафа. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 1999. – 26 б;
20. Rashidov Q. ANCIENT AND MODERN PERFORMANCE STYLES OF CHANGKOVUZ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 5 SPECIAL. – С. 55-57.
21. Абдуллаев Р.С. Обрадовая музыка народов Центральной Азии. Монография. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 7-19.
22. Абдуллаева Э. С. Синкретизм духовной культуры: взаимосвязь общего и особенного. Дисс. ... канд. филос. наук. – Грозный: Чеченский государственный университет, 2007. – С. 8.
23. Алексеев Э. Раннефольклорное интонирование. Монография. – Москва: Советский композитор, 1986. – С. 66-80;
24. Античная философия. Энциклопедический словарь. – Москва: Прогресс-традиция, 2008. – С. 555-557;
25. Архипова Ю. В. Синкретизм в структуре культуры. Дисс. ... канд. филос. наук. – Саратов: Саратовский государственный университет, 2005. – С. 43.
26. Барбой Ю.М. К. Теории театра. Монография. – Санкт-Петербург: СПб ГАТИ, 2008. – С. 199;
27. Богомолов А.С. Античная философия. Учебник. – Москва: Выс. школа. – 2006. – С. 84-85;
28. Бонгард-Левин Г.М., Грантовский Э.А. От Скифии до Индии. Изд-до 2-е. Монография. – Москва: Мысль, 1983. – С. 158.
29. Грубер Р. Всеобщая история музыки. Част 1. Монография. – Москва: Музгиз, 1960. – С. 10-22;

30. Дохаева А. Б. Религия в системе этнической культуры чеченцев. 24.00.01 – Теория и история культуры. Дисс. … канд. филос. наук. – Грозный: Адыгейский государственный университет, 2014. – С. 33.
31. Егина Н. Ритмика о роле ритма в воспитании. Монография. – Москва: Гослитиздат, 1927. – С. 93-96;
32. Жмуд Л.Я. Пифогор и его школа. Монография. – Ленинград: Наука, 1990. – С. 91-100.
33. Золкин А.Л. Эстетика. Учебник. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – С. 194;
34. Кулагин Д. Л. Мифологемы в смысловом контексте культуры (на материале русских сказок и былин). Дисс. … канд. филос. наук. – Ростов-на-Дону: Южно-Российский гуманитарный институт, 2017. – С. 20.
35. Лукач Д. Своеобразие эстетического Том 2. Монография. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 45;
36. Петрухинцев Н.Н. XX лекций по истории мировой культуры. Монография. – Москва: Центр ВЛАДОС, 2001. – С. 52-53.
37. Подвойская Л. Т. Гармония как тип отношений социальных общностей. Дисс. … филос. канд. наук. – Москва: Московский государственный университет, 2000. – С. 27.
38. Эстетика: Словари / Под общ. ред. А.А.Беляева и др. – Москва: Политиздат, 1989. – С. 131.